**@BIOLOGIYA_TESTUZ**

✔ https://t.me/biologiya_testuz
✔ t.me/@aqlli_inson
8-aprel 2020-yil
Biologiya online test HAMMAGA OMAD!

1. Harorati iliq kelgan kuz oylarida ham gullashda davom etadigan yovvoyi o'simliklarni belgilang.

A)astra, zubturum

B)zubturum, qo'ypechak

C)kartoshkagul, moychechak

D)kampirchopon, singirtak

2. Plastidaning qaysi turi o'simliklarning tugunaklarida uchraydi?

A)leykoplast

B)xloroplast

C)xromoplast

D)xloroplast va xromoplast

3. Gidroponika qanday usul?

A)tuproqsiz joydagi o'simliklarga suv bilan ishlov berish

B)suv muhitida o'sadigan o'simliklarni o'stirish

C)o'simliklarni tuproqda o'stirish

D)o'simliklarning organik o'g'itlanishi

4. Qaysi javobda nerv tizimining tug'ma xususiyatlariga bog'liq tormozlanish turlari to'g'ri berilgan?

1) tashqi tormozlanish; 2) chegaradan tashqari tormozlanish;

3) so'nish tormozlanishi; 4) kechikish tormozlanishi;

A)1, 3, 4

B)1,2

C)3,4

D)2, 4

5. Shakli o‘zgargan yerosti poyaii o‘simliklar guruhini aniqlang.

A)yantoq, tugunak

B)lola, boychechak

C)piyoz, qulupnay

D)tok, anzur piyoz

6. Tovuq fabrikalarida go‘sht uchun boqiladigan yosh jo‘jalar (broylerlar) o‘stiriladigan sexlarda jo‘jalar necha kun va vazni qanchaga yetguncha boqiladi?

A)60- 70 kun, 1.8- 2 kilogramm

B)60- 70 kun, 1.4- 1.5 kilogramm

C)80- 90 kun, 2.1- 2.3 kilogramm

D)50- 60 kun, 1.2- 1.4 kilogramm

7. Sianobakteriyalar qanday yo‘l bilan ko‘payadi?

A)ikkiga bo‘linib, gormogoniyalar yordamida

B)mitoz va meyoz

C)mitoz, meyoz va gormogoniya

D)meyoz va amitoz

8. Odam organizmida qaysi a’zolar uch qismdan tashkil topgan?
1) jigar; 2) to‘sh; 3) halqum; 4) me’da osti bezi; 5) buyrak usti bezi;

6) o‘pkalar; 7) til; 8) tish; 9) ko‘z soqqasi; 10) tashqi quloq;
A)1, 2, 4, 5, 6, 7, 8
B)3, 4, 7, 8
C)2, 6, 8, 9
D)2, 4, 6, 7, 9, 10

9. Ba’zida odam terisidagi jarohatdan qonga o‘tgan mikroblar ko‘payib, butun tanaga tarqaladi va bunda qaysi kasallik yuzaga keladi?

A)sepsis

B)tepki

C)qoqshol

D)ichburug‘

10. Kislorodga to'yingan qon ... orqali chap yurak bolmasiga keladi.

A)4 ta o'pka arteriyasi

B)kovak vena

C)1 ta aorta

D)4 ta o'pka venasi

11. Halqumning vazifalarini belgilang:

1) ovqatni og'iz bo'shlig'idan qizilo'ngachga o'tkazish;
2) havoni burun bo'shlig'idan hiqildoqqa o'tkazish;
3) ovqatni oshqozonga o'tkazish; 4) tovush hosil qilish;

A)3,4

B)1,4

C)2,3

D)1,2

12. Odam terisida qanchadan ortiqroq ter bezlari joylashgan bo'ladi?

A)500000
B)2 million
C)1 million
D)100000

13. Biosferaning birinchi davri ... hisoblanadi.

A)biogenez

B)noogenez

C)oogenez

D)ontogenez

14. Ruxsatnoma asosida ovlanadigan hayvonlarni toping.

A)tulki, kaklik

B)tasqara, sayg'oq

C)chiyabo'ri, burgut

D)ondatra, bo‘ri

15. Quyidagi birikmalarning qaysi biri vorsinkalarda kapillyar (a)va limfa (b) tomirlariga so‘riladi?

1) oqsillar (aminokislota); 2) yog‘lar; 3) karbon suvlar;

A)a-1,3; b-2

B)a-1; b-2,3

C)a-2; b-1, 3

D)a-3; b-1,2

16. Biologik kurash olib boorish maqsadida qaysi hayvondan foydalaniladi?

A)asalari

B)beshiktervatar

C)bo‘ka

D)yaydoqchi

17. Turlararo o‘simlik duragaylarida hosilsizlikni bartaraf etish uchun bajariladigan ishni belgilang?

A)duragay xromosomalari soni 2 marotaba kamaytiriladi

B)duragay xromosomalari soni 2 taga kamaytiriladi

C)duragay xromosomalari soni 2 marta oshiriladi

D)duragay xromosomalari soni 2 taga oshiriladi

18. Organizmdagi o‘zgaruvchanlikning qanday turlari bor?

1) kombinativ; 2) gen; 3) rekombinogenez;

4) mutagenez; 5) somatik; 6) modifikatsion;

A)1, 3, 4, 6

B)1, 4, 6

C)1, 2, 3, 5

D)3, 6

19. Havo quruq bo‘lsa, ...

A)arterial qon bosim pasayadi

B)arterial qon bosim o‘zgarmaydi

C)arterial qon bosim ortadi

D)arterial qontomirlar kengayadi

20. Kaltakesakning qaysi organi kuchli rivojlangan?

A)oyoqlari

B)eshitish

C)dumi

D)yuragi

21. Faqatgina yopiq urug'lilarga xos bo'lgan xususiyatlarni belgilang.

1) yorug'likka talabi kattaligi; 2) gulning bo'lishi;

3) vegetativ a'zolarining rivojlanganligi;

4) qo'sh urug'lanish; 5) urug'larining qanotchali, uchma bo'lishi;
6) urug'ning meva ichida bo'lishi; 7) hayotiy shakllarining xilma- xil bo'lishi;

8) namlikka talabining yuqori bo'lishi; 9) turli yo'llar bilan changlanishi;

A)2, 3, 5, 7, 8

B)1, 3, 4, 5, 7

C)1, 3, 5, 7, 9

D)2, 4, 6, 9

22. Xalqaro "Qizil kitob" nechanchi yilda yaratilgan?

A)1962- yil

B)1956- yil

C)1972- yil

D)1947- yil

23. Ochiq urug'lilarning arxegoniysi qayerda joylashadi?

A)urug'kurtakda

B)tuxum hujayrada

C)changchi qubbalarida

D)tugunchada

24. Odam organizmidagi uglevodlarni parchalovchi fermentlarni belgilang.

1) lizotsim; 2) ptialin; 3) tripsin; 4) amilaza; 5) enterokinaza;

A)1, 3

B)2, 4

C)1, 2, 5

D)3, 4, 5

25. Nafas olishni gumoral yo'l bilan boshqarishda ishtirok etuvchi birikmani aniqlang.

A)lizotsim

B)vazopressin

C)karbonat angidrid

D)tiroksin

26. Yurak muskullarida qon aylanishning buzilishi tufayli sodir bo'ladigart kasallik - ...

A)miozit

B)ishemik

C)insult

D)ateroskleroz

27. Boshoyoqli mollyuskalar sinfiga mansub hayvonni toping.

A)baqachanoq

B)perlovitsa

C)tok shillig'i

D)sakkizoyoq

28. Rudiment organlar berilgan javobni toping.
a) paporotniklarning ildiz poyasidagi qobiqlar; b) kitning dumg'aza va oyoq suyaklari; c) toychalar zebrasimon bo'lishi; d) pashshalarning bir juft kichik qanotlari; e) to'riq otlarning orasida xira yo'l-yo'l chiziqlilarning paydo bo'lishi.
A) c, e

B) a, b, d

C) a, b e

D) c, d, e

29. Quyidagilardan atavizm hodisasiga misol bo'ladigan javobni toping.

a) paporotniklarning ildiz poyasidagi qobiqlar; b) kitning dumg'aza va oyoq suyaklari; c) toychalar zebrasimon bo'lishi; d) pashshalarning bir juft kichik qanotlari; e) to'riq otning orasida xira yo'l-yo'l chiziqlilarning paydo bo'lishi.
A) c, e

B) a, b, d

C) a, b e

D) c, d, e

30. Tur ichidagi kurashning shiddatli bo'lishi sabablarini ko'rsating.
a) yashash areali o'xshash; b) oziqlanishi o'xshash; c) yashash areali farqlanadi; d) dushmanlari o'xshash; e) urchish davri o'xshash; f) urchish davri farqlanadi.
A) a, b, d, e

B) b, c, d, e

C) a, b, d, f

D) c, b, d, f

Bizni telegramda kuzatib boring.
@biologiya_testuz
Admin: @aqlli_inson